

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Matqulov	
Nominative field of the concept "Wrestling" in English and Uzbek.....	372
D.M.Uktamovna	
"Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlarida tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi ...	377
M.B.Siddiqov	
Urush nogironlarini ishga joylashtirishda tibbiy mehnat ekspert komissiyalarning roli.....	381
S.S.Abdullayev, D.M.Obidova	
Yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi	387
R.I.Madaliev	
Artpedagogika vositasida (teatr sa'nati orqali) talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasini rivojlantirish omillari va istiqbollari	391
D.Z.Xudaykulova	
Bolalarning mustaqil badiiy faoliyatlariga rahbarlik qilish metodlari.....	395
Sh.A.Dosbayeva	
Mantiqiy fikrlesh mashg'ulotlarining didaktik ta'minotini takomillashtirish.....	402
D.A.Xomidova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning dizayn faoliyatini rivojlantirish.....	408
B.S.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik bilimlarni shakllantirishga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik zarurati.....	412
T.S.Axmedova	
Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Ilk qadam" davlat dasturidan foydalanish	416
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik modeli	420
A.E.Normatov	
Neft va neft mahsulotlari bilan ifloslangan oqava suvlarini suv o'simliklari yordamida tozalash	425
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida harbiy ta'lif talabalarida o'quv-jangovar sifatlarini rivojlantirish metodikasi	428
X.A.Madaminov	
Musobaqa faoliyati sharoitlarida kurashchilarning texnik-taktik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishonchliligi muammosi	433
B.Q.Qurbanova, M.Esonmirzayeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya fani asosida milliy kasibga yo'nalrishning usul va metodlari.....	437
S.M.Boboraximov	
Kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanish zarurati	441
N.A.Akbarova	
Farg'onasi viloyati musiqa maktablarining respublika va xalqaro tanlovlardagi ishtiroti va natijalari	445
A.A.To'raxonov, A.A.Ergashev	
Alovida ta'lif ehtiyojiga ega o'quvchilar muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari	450
M.M.Abdurahmonova, M.Suyumova	
Umumta'lif muassasalarida ijtimoiy ish amaliyotini amalga oshirish (Rossiya Federatsiyasi misolida).....	457



**KICHIK SINF O'QUVCHILARINING JISMONIY TARBIYASIDA KLASTERLI
TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUVDAN FOYDALANISH ZARURATI**

**НЕОБХОДИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛАСТЕРНО-ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО
ПОДХОДА В ФИЗИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ МЛАДШИХ КЛАССОВ**

**THE NEED TO USE A CLUSTER-DIFFERENTIATED APPROACH IN THE PHYSICAL
EDUCATION OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS**

Boboraximov Sanjar Malikjanovich

Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik sinf o'quvchilarining tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, klaster yondashuv asosida kichik sinf o'quvchilarining tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiyasini rivojlantirish parametrlari o'rganilgan. Shuningdek, kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida klasterli tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalananish zarurati tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье изучены теоретико-методологические основы развития дифференцированного физического воспитания младших школьников, параметры развития дифференцированного физического воспитания младших школьников на основе кластерного подхода. Также анализируются педагогические основы развития дифференцированного физического воспитания младших школьников.

Abstract

In this article, the theoretical-methodological foundations of the development of differentiated physical education of junior grade students, the parameters of the development of differentiated physical education of junior grade students based on the cluster approach are studied. Pedagogical foundations of the development of differentiated physical education of junior high school students are also analyzed.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, korporativ, texnologik, kompetensiya, klaster, jismoniy tarbiya, tizimlilik, izchillilik, uzvilylik, vertikal hamkorlik, dinamik, sog'lom turmush, harakat, jismoniy sifat.

Ключевые слова: педагогический процесс, профессионально-педагогическая деятельность, интегративный, корпоративный, технологичный, компетентность, кластер, физическое воспитание, системность, системность, слаженность, вертикальное сотрудничество, динамика, здоровый образ жизни, движение, физическое качество.

Key words: pedagogical process, professional-pedagogical activity, integrative, corporate, technological, competence, cluster, physical education, systematicity, consistency, coherence, vertical cooperation, dynamic, healthy life, movement, physical quality

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'limgiz tizimida shunday yangi mexanizm yaratilishi hayotiy zaruratga aylandiki, unda ta'limgiz turlari o'tasida o'zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlarning qondirilishi ham ta'minlanishi zarur. Oliy ta'limgizning jamiyat barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagagi muammolar va ularni hal qilishda ta'limgiz, fan va ishlab chiqarish tarmoqlari o'tasidagi tarqoqlik bugungi kunda uzlusiz pedagogik ta'limgiz klaster rivojlanish modeliga o'tkazish zaruratini taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik, metodik, tibbiy va tarbiyaviy asoslari, o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi, yoshlarda jismoniy sifatlarni shakllantirish, jismoniy madaniyat darslarini tashkil etish jarayonini loyihalash masalalari A.Alpers, V.Balsevich, L.Volf-Vendel, Y.G.Tatur, V.Xutmaxer, Hsiang Ru Lai, Chang Ming Lu, B.Ashmarin, V.Balsevich, M.Vilenskiy, G.Germanov, S.Kramskoy, L.Lubisheva, O.Masalova, L.Matveyev, Y.Nikolayev,

S.Pavlov, I.Sechenov, V.Smolevskiy, A.Abdullayev, F.Kerimov, K.Maxkamjonov, H.Meliyev, B.Nigmanov, A.Nurullayev, R.Salomov, K.Raximqulov, T.Usmonxo'jayev, F.Xo'jayev, J.Eshnazarov, B.Haydarov, S.Arzumanov, I.Shamsiyeva, A.Akramov, T.Yunusov, A.Hamroqulov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida pedagogik ta'lif majmuasini tashkil qiluvchi bo'g'inalr o'rtaida mavjud tabiiy aloqani manfaatdorlik va samaradorlik nuqtayi nazaridan, muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'minlashda pedagogik ta'lif klasteri modeli engmaqbul usullardan biri hisoblanadi, degan dastlabki xulosani chiqarish mumkin.

Klaster deb, ma'lum tizim tushuniladi, ammo bu tizim o'ziga xos bo'lib, bunda unga qo'shilgan elementlar ushbu tizimning ishini yaxshilaydi, biroq undan biron elementning chiqib ketishi bu tizimning buzulishiga olib kelmaydi. Klaster tizimlariga unumdarlik, barqarorlik xos hamda u ason zamonaviylashtirilishi, yangilanishi va turli vositalarda kuchaytirilishi mumkin. Klasterning afzalligi uning global masshtabga egaligi, ochiqligi, egiluvchanligi va boshqaruvining soddaligidadir.

Klaster o'zaro munosabatlariga nafaqat tizimlilik alomatlari, balki sinergetiklik ham xosdir. Sinergetik yondashuv - bu faol rivojlanuvchi metodologik yondashuv bo'lib, unda o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi joriy etish, o'zini o'zi tashkillashtirish kabi g'oyalar ustuvorlikka ega. Sinergetika o'zini o'zi tashkillashtirish, paydo qilish mexanizmlarini asoslaydi, ya'ni tabiatda o'z o'zidan paydo bo'lish, barqaror mavjud bo'lish, mikroskopik tartiblangan tuzilmalarning o'zini o'zi yo'q qilishi kabilalar tushuniladi. Boshqaruvda o'zini o'zi tashkillashtirish xususiyati, shu jumladan ta'lifda ham, muhim rol o'ynaydi. Sinergetikanig shu kabi qonuniyatlarini bilish, kasbiy pedagogik ta'lif tizimi o'qitish jarayonining sifat o'zgarishlariga olib keladi.

Pedagogikada – "ilmiy-ta'lifiy klaster deb, kasbdoshlar tomonidan bajarilgan loyiham, tadqiqotlar, ishlanmalar va publikatsiyalar "to'plami" tushuniladi. Ta'lifiy klaster deb, esa ish beruvchilar hamda ta'lif muassasalarining mufassal, universal kompleks darsturlari tushuniladi.

Maktab klasteri: "Tayanch maktablari har bir klasterda o'zlarining pedagogik sheriiga (partnyoriga) ega – bu sputnik maktablari, maktabgacha ta'lif muassasalari..., bu ijtimoiy hamkorlar – OTMilar, bibliotekalar, muzeylar, ommaviy axborot vositalari..." va b.

Zamonaviy adabiyotlarda pedagogik klaster tushunchasi ham mavjud. Bu tushuncha quyidagilarni bildiradi: ta'lif samaradorligini ko'tarish maqsadida manfaatdor tomonlar harakatining birlashuv shakli; jamoani psixologik o'rganish metodi; pedagogik boshqaruvni optimallashtirish metodi; o'quv dasturlarini loyihalash metodi; o'qitish metodi; ta'lif sifatini baholash metodi; pedagogik metod, ya'ni tafakkur variativligini rivodlantiradi, o'rganilayotgan mavzu (tushuncha, voqeа, hodisa) yuzasidan har tomonlama aloqa o'rnatish qobiliyati kabilalar.

Klaster yondashuvga murojaat qilishga zaruriyat–klasterning kasbiy ta'lif tizimining samaradorligini oshirish, manfaatdor tomonlar harakatini birlashtirish xususiyatiga ega tashkillashtirish shakli sifatida ustuvorlikka egaligidadir. Klaster yondashuvning ta'lifni rivojlantirishi deganda, klaster subyektlarining o'zaro va o'zini o'zi rivojlantirish tushuniladi, ya'ni "muammo ustida ishslash jarayonida" hamkorlarning (alohida qatnashchilar hamda to'liq klaster ishtirokchilarining) barqaror rivojlanishi tushuniladi. Demak, ta'lif klasterida markaziy o'rinni umumiyl maqsad egallaydi. Bu o'quv jarayonini birlgilikda loyihalashda ko'rindi hamda bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyasining shakllanishini ta'minlaydi. Klaster yondashuv hamkorlik, partnyorlik tizimi orqali amalga oshiriladi, bunda ta'lif muassasalarining maqsadlari, qiziqlishlari, faoliyat va imkoniyatlari mehnat bozorining barcha subyektlari, uning istiqbollari hamda kasbiy ta'lifning xudidiy boshqaruv organlari integratsiyasi asosida amalga oshiriladi .

Ta'limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni tizimli o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu:

- alohida soha (ta'lif, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birla-shishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi (T.I.Shamova);

- ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma (L.Bespalova);

ILMIY AXBOROT

– ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi (Osechkina L.I.);

– tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli (Sidorin A.V.).

Ilmiy adabiyotlarda «klaster» tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda biz «pedagogik ta'lim klasteri» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif qilamiz: Pedagogik ta'lim klasteri – muayyan geografik hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida subyektlarning, texnologiya va inson resurslarining integratsiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm.

O'zbekiston sharoitida pedagogik ta'lim klasteri modelining subyektlari sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin:

– talabalar, magistrantlar va doktorantlarning ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan, pedagogik amaliyotlar olib boriladigan, o'quv va tajriba-eksperimental baza vazifasini o'taydigan barcha turdag'i muktab-gacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari;

– barcha turdag'i muktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shimcha ta'lim muassasalari pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

– pedagogik faoliyatga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan va uning rivojlanish tamoyillarini belgilaydigan ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

– pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;

– xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari.

Klaster doirasida bir nechta subyektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy hodisadir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster subyektlarining ishonchini qozonadi.

Pedagogik ta'lim klasterining strategik yo'nalishlari sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

1. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash, pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy-metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o'quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish.

2. Pedagogika sohasidagi talab va ilg'or xorijiy tajriba, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda viloyat ta'lim muassasalarida davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va das-turlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish.

3. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha viloyatdagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish.

4. Pedagogik oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha viloyat umumta'lim muktablarining ilmiy-pedagogik salo-hiyatini oshirish, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash asosida pedagogika sohasini rivojlantirishning strategik vazifalaridan kelib chiqqan holda viloyatdagi ta'lim muassasalari rahbar xodimlari va mutaxassislarini malakasini sifatli oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash.

5. Pedagogik oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha uzlusizcghgfhfgh pedagogik ta'limning informatsion ta'minotini takomillashtirish va pedagog kasbinining nufuzini oshirish hamda pedagog-innovatorlarni qo'llab-quvvatlash.

6. Pedagogik ta'limni tartibga soluvchi mavjud me'yoriy hujatlarni takomillashtirish.

7. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining platformasini ishlab chiqish.

XULOSA

Pedagogik ta'lim klasterining asosiy mahsuloti ta'lim xizmatlari hisoblanadi. Klaster, birinchi navbatda, ta'lim xizmatlarini amalga oshirishga emas, balki o'zgaruvchan bozor sharoitida raqobatbardosh ta'lim berishga qaratilgan bo'lishi kerak. Raqobatbardosh ta'lim berish doimiy

ravishda innovatsiyalarni, zamonaviylikni va talab hamda taklif mutanosibligini talab qiladi. Bu jarayonda ta'lim xizmatlariga yo'naltirilgan faoliyat o'sish ko'rsatkichlarini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев А., Ш.Хонкельдиев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Дарслик - Т.: 2013 йил. 462 б.
2. Беспалова Л. Что такое кластер? <http://siok.rightside.ru/siok/> 2009-12-01-06-24-41. Загл. с экрана
3. Каменский А.М. Внутришкольный образовательный кластер// Режим доступа: <http://www.likt590.ru/about/director/cluster.pdf>
4. Ханкељдиев Ш.Х. Педагогические особенности физического воспитания учащейся молодежи в регионах с жарким климатом Автореф.дис...док.пед.наук., М. 1991-47с.
5. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффективности деятельности вуза. // Высшее образование в России, 2012, № 8-9. –С. 75.
6. Салимов Г.М. Миллий харакатли ўйнлар асосида 7-10 ёшли укувчиларнинг жисмоний сифатларни ривожлантириш самараадорлиги Автореф. пед.фан.номз. Т. 2007-30 с.
7. Соњкин В.Д. Валеологический мониторинг состояния здоровья и условий обучения детей и подростков //Теория и практика физической культуры 1998 №7 С 144.
8. Усмонхўжаев Т.С., Тангриев А.Ж. Эрталабки бадантарбия. Начинаем день с зарядки. "Шодлик нашриети", Ташкент – 2019 – 31 б.
9. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию обра зо вательных систем. // Взаимодействие образовательных систем. // Взаимодействие образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.); в 2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И.Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. -С. 25